



Mening birinchi ensiklopediyam



# HAYVONOT OLAMI






Mening birinchi ensiklopediyam

# HAYVONOT OLAMI



SUTEMIZUVCHILAR · QUSHLAR



«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti  
Toshkent

22.632  
K65

Maktabgacha katta yoshdagi va kichik yoshdagi  
maktab bolalari uchun

2-nashri

Hayvonot olami: Sutmizuvchilar. Qushlar./ –T.: «O‘zbekiston  
milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 104 b.  
– («Mening birinchi ensiklopediyam» turkumidan).

BBK 22.632+22.654.1+26.8

K  $\frac{0500100000}{358 - 2010}$

ISBN 978-9943-07-061-5

© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2009-y.  
© «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»  
Davlat ilmiy nashriyoti, T., 2010-y.



# MUNDARIJA



## SUTEMIZUVCHILAR

KITOB DAN QANDAY FOYDALANISH KERAK .....	4
Sutemizuvchilar qanday hayvonlar .....	8
Tuxum qo'yuvchilar va xaltalilar .....	10
Ko'rshapalaklar (qo'lqanotlilar) .....	13
Qonxo'r (vampir) qo'lqanotlilar .....	14
Hasharotxo'rlar va yalqovlar .....	16
Primatlar .....	18
Yirtqichlar .....	24
Yo'lbarslar .....	32
Tulenlar, kitlar va delfinlar .....	34
Tuyoqli sutemizuvchilar .....	38
Fillar .....	40
Kemiruvchilar va tovushqonsimonlar .....	50



## QUSHLAR

Qushlarni bilasizmi? .....	58
Ovlanadigan va yerda yashaydigan qushlar .....	60
Botqoqlikda yashovchi, suvda suzuvchi qushlar, dengiz qushlari va turnalar .....	68
Boyo'g'li va yirtqich qushlar .....	82
Daraxt qushlari va mohir uchuvchilar .....	86
Kolibrilar .....	90
Sayroqi qushlar .....	94
Jannatqushlar .....	98





## Kitobdan qanday foydalanish kerak



Sutemizuvchilar, qushlar haqidagi kitob bir necha bo‘limdan iborat bo‘lib, ularda ushbu hayvonlar va qushlar sinfining asosiy turlari to‘g‘risida ma‘lumotlar bayon etilgan. Har bir bo‘limni ma‘lum turdagi hayvon va qushlarning alohida xususiyatlari sharhlangan muqaddima va ularning hayotidagi qiziqarli voqealar bilan tanishtiruvchi kirish so‘zi ochib beradi. Bo‘limlarning asosiy qismi katalogdan iborat bo‘lib, unda turli hayvon va qushlar haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Bundan tashqari, kitobda sutemizuvchilar, qushlar, ayniqsa, ularning antiqa turlari haqida ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan maxsus tutash betlar (bo‘limlar) mavjud.

Virjiniya opossumi  
(qopchiqli kalamushi)



### O‘lchami

Hayvon, qushning taxminiy o‘lchamlari

**O‘lchami:** tanasi 32,5–50 sm;  
dumi 25,5–53,5 sm

**Areali:** Kanada janubi-sharqi,  
Markaziy Amerikagacha  
bo‘lgan AQSH hududi

**Ilmiy nomlanishi:**  
*Didelphis virginiana*

### Yashash muhiti

Bu belgilar ushbu turdagi hayvon, qushlarning yashash muhitini aks ettiradi.

### Areali

Bunda Yer sharining ushbu hayvon, qush turi uchraydigan mintaqalari ko‘rsatilgan.

### Ilmiy nomi

Hayvon, qushlarning katta qismiga mahalliy nomlar berilgan, masalan, virjiniya opossumi, yapon tragopani. Biroq turli mintaqalarda bitta hayvon, qushning nomi har xil bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga har bir turning doimo o‘zgarishsiz qoladigan ilmiy, lotincha nomi ham mavjud. Bu nom kursiv bilan keltiriladi.

## Yashash muhiti belgilari ma'nosi



### Shimol o'rmonlari

Tayga, shimol ignabargli o'rmonlarini o'z ichiga oladi



### O'tloqlar

Dashtlar, preriyalar, pampaslar, butazorlar, tekisliklar, torfli yerlar, bo'sh yerlar, vodiylarni o'z ichiga oladi



### Tropik o'tloqlar

Savannaning tropik mintaqalarini o'z ichiga oladi



### Yaproqli daraxtlar o'rmoni va mavsumiy o'rmonlar

Yaproqli daraxtlar o'rmoni va mavsumiy tropik o'rmonlarni o'z ichiga oladi



### Tropik doimiyashil o'rmonlar

Namligi yuqori tropik va subtropik chakalakzor o'rmonlar, bambuk va mango o'rmonlarini o'z ichiga oladi



### Cho'llar

Toshli hududlarni, qumli maydonlar, yarimcho'llar, dasht butalari, qurg'oq va yarim qurg'oq yerlarni o'z ichiga oladi



### Suv bo'yi

Dengiz qirg'og'ini, orollar va okeanlar qirg'og'ida suvning ko'tarilish va qaytish hududlarini o'z ichiga oladi



### Marjon riflar



### Aholi yashovchi hududlar va qishloq xo'jalik maydonlari

Bog'lar, mevazorlar, qishloq xo'jalik plantatsiyalari, parklar, ekinzorlar, ishlov berilgan yerlar, yaylovlar, qishloq va shaharlar, buta g'ovlar va yo'l chetlarini o'z ichiga oladi



### Baland tog'liklar

Tepaliklar, tog'lar, tog' etaklari, platolar (yassi tog'lar), vulqonlarni o'z ichiga oladi



### Tundra va qutb doirasidan nari yerlar

Arktika va Antarktida hududlarini, ko'p yillik qalin (pak) va suzib yuruvchi muzlar, muzlikdan iborat maydonlarni o'z ichiga oladi



### Okean

Ochiq dengizlar va okeanlarni, suvning yuqori va o'rta qatlamlarini o'z ichiga oladi



### Qirg'oq oldi suvlari

Daryo etaklari va dengiz qirg'oq bo'yi tubini o'z ichiga oladi



### Chuchuk suv havzalari

Daryolar, ko'llar, hovuzlar, sayoz ko'llar, soylar, daryo etaklari, botqoqlashgan yerlar, botqoqlar, ichki suvlar, suv bosgan o'tloqlar, buloqlar, ariqlar, to'g'onlar, daryo qirg'oqlari va g'orlardagi yer osti suvlarini o'z ichiga oladi





## SUTEMIZUVCHILAR

*Sutemizuvchilar turli-tuman shakl va o'lchamlarga ega bo'ladi. Ular Yer yuzining qariyb barcha qismlarida – sovuq Arktikadan boshlab, issiq sahrolargacha, yaproqli o'rmonlardan azim okeanlarga uchraydi. Sutemizuvchilar har bir turining vakillari o'zlarining alohida hayot tarzini yuritadi.*

*Masalan, yo'lbars o'ljasini o'rmon chakalakzorida ovlaydi, delfinlar dengizda suzadi, krotlar yer ostida uya qaziydi, ko'rshapalaklar havoda parvoz qiladi, otlar yerda chopadi, maymunlar esa, daraxtda shoxdan-shoxga sakraydi.*

*200 million yillar avval, sutemizuvchilarning ajdodlari qadimgi paleozoy davri sudralib yuruvchilari bo'lgan. O'sha davrlarda sayyoramizda hali dinozavrlar izg'ib yurishardi. Birinchi sutemizuvchilar yerqazirga o'xshash kichkina hayvonchalar bo'lishgan.*

*Ular hasharotlar va dinozavrlar tuxumlari bilan oziqlanishgan. Taxminan 65 million yillar avval dinozavrlar yo'q bo'lib, qirilib keta boshladi va sutemizuvchilar quruqlikda hukmronlik qiladigan mavjudotlarga aylandilar. Turli-tuman yashash muhitlariga moslashish qobiliyati sutemizuvchilarga butun sayyora bo'ylab tarqalib ketishga yordam berdi.*

Olmaxon-  
letyaga







Hind fili

Sutemizuvchilar – issiqqonli hayvonlar. Buning ma'nosi shundan iboratki, ular atrof-muhit harorati qanday bo'lishidan qat'iy nazar tanalarida doimiy haroratni ushlab tura oladilar. Sutemizuvchilarning ko'pi juda isib ketgan paytida terlaydi va shu yo'l bilan o'z organizmini sovitadi. Biroq fillar terlay olmaydi va shuning uchun ham soyaga berkinib, suvda cho'milib hamda issiqning ortiqcha qismini bahaybat quloqlari orqali tarqatib, tanasini sovitadi.

### Sezgi a'zolari

Sutemizuvchilar odatda yaxshi rivojlangan ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish sezish a'zolariga ega. Bu esa ularga oziq topishga, yirtqichlarga ro'para bo'lmaslikka, o'z juftini topishga yordam beradi. Sezgi a'zolari ko'p hollarda boshda, miya yonida joylashgan bo'ladi.



Nozik eshitish qobiliyati

O'tkir ko'rish qobiliyati

O'ta yaxshi hid ajratish

Sezgir mo'ylov

## Sutemizuvchilar qanday hayvonlar?

Hamma sutemizuvchilar issiqqonli hayvonlar. Suyaklardan iborat karkas – skelet – ularning tanasini ushlab turadi va ichki a'zolari himoya qiladi. Sutemizuvchilarning miyasi nisbatan katta bo'lib, sezgi a'zolari yaxshi rivojlangan, terisida ter bezlari, tuk va jun qoplama mavjud. Ko'p sutemizuvchilar to'rt oyoqlilardir.

### Sutemizuvchilarning xilma-xilligi

Sutemizuvchilar uchta guruhga bo'linadi, ya'ni yo'ldoshlilar, xaltalilar va tuxum qo'yuvchilar. Yo'ldoshlilarning bolalari urg'ochisining bachadonida rivojlanadi. Ozuqa va kislorodni ular maxsus a'zo – yo'ldosh orqali oladi va yaxshi rivojlangan holda dunyoga keladi. Sutemizuvchilardan xaltalilarning bolalari esa hali o'sib yetilmagan holda dunyoga keladi. Tug'ilishi bilan ular onasining tanasidagi maxsus xaltaga emaklab o'tib, onasining sut bezlari so'rg'ichiga og'zi bilan yopishib oladi va xavfsizlikda rivojlanadi. Tuxum qo'yuvchi sutemizuvchilarning o'zgachaligi shundaki, tirik bola tug'masdan, balki tuxum qo'yadi.

### Tuxum qo'yuvchilar

#### Avstraliya yexidnasi

Urg'ochi tuxumni qornidagi maxsus teri qatlamida olib yuradi


Tanasini o'tkir qillar himoya qiladi



Yexidnada sut bezlari so'rg'ichlari mavjud emas. Sut teridagi teshikchalardan sizib chiqadi

#### Kenguruning bolasi ona xaltasida rivojlanmoqda

Katta bosh



Zaif rivojlangan panjalar

#### Xaltalilar Oxirdumli kenguru

Kichkina kenguru bolasi sut bezlarining so'rg'ichiga yopishib olgan

Baland sakrash uchun oyoqlar



Muvozanatni saqlashga mo'ljallangan uzun va qalin dum

## Parvarishlash

Sutemizuvchining urg'ochisi kichkintoyga zarur ozuqani o'zi ishlab chiqaradi. Uning maxsus sut bezlarida (ular emchak yoki yelin deyiladi) yetishtirilgan sutni kichkintoy so'rib oladi. Ushbu jarayonni parvarishlash yoki emizish deyiladi. Ona sutida kichkintoyning sog'lom bo'lishi va o'sishi uchun zarur bo'lgan shakar, yog', protein va vitaminlar bor.



Yovvoyi urg'ochi to'ng'iz bolalari bilan

## Yo'ldoshlilar



O'simliklarni chaynashga moslashgan yirik yassi tishlar joylashgan uzun tumshuq

Besh barmoqdan iborat oyoq kafti

Qisqa oldingi panjalar

Kenguru bolasi

Teri xaltasi

## Qoraqo'l gibbon



Uzun qo'llar daraxtdan daraxtga o'tish imkonini beradi

Ko'zlar oldinga yo'naltirilgan. Bunday joylashuv masofani to'g'ri aniqlash imkonini beradi

Terisi jun bilan qoplangan

Kalta va kuchli oyoqlar

## Gorilla skeleti



Kurak suyagi

Bosh suyagi

Umurtqa

Tos suyagi

Qovurg'alar

Jag' suyaklari

Qo'llar

Oyoqlar


Oyoq kafti

Panjalar

## Sutemizuvchilar skeletlari

Sutemizuvchilar skeletida umurtqa mavjud bo'lib, u alohida suyaklar – umurtqa pog'onalaridan iborat. Qovurg'a yurak va o'pkani o'rab tursa, bosh suyagi miyani himoya qiladi. Sutemizuvchilarning skeleti ularning yashash tarziga moslashgan. Masalan, dengiz sutemizuvchilarida oldingi va orqa oyoqlarning o'rniga suzgichlar mavjud.

## Ko'k kit skeleti



Kurak suyagi

Umurtqa

Jag' suyaklari

Bosh suyagi

Suzgichlar

Qovurg'alar

Orqa oyoqlar bo'lmagan tos suyagi

Dum



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3667> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3667> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3667>